

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI INTEGRATIV O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Fozilova Mohigul Farxodovna

O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*Annotation: ushbu maqolada adabiyot darslarini ona tili bilan bog'lash orqali badiiy asarlarning ona tilidagi boy til hodisalarini nazariy jihatdan anglash, ularni amalda harakatda ko'rish, nafosatini tuyish, til hodisalaridan, nutq uslublaridan foydalanishning yuksak namunalari bilan tanishish imkoniyati yuzaga keladi. O'quvchi ona tili va adabiyotni o'zaro bog'lanishda o'rganar ekan, inson ruhining eng yuksak yutuqlari bilan tanishish, o'z hayotining ongli ijodkoriga aylanish imkoniyati kengayishi haqida fikr yuritilgan.*

**Tayanch sozlar:** badiiy asar, adabiyot, nafosat, til hodisalari, integratsiya, nutq uslublari.

*Annotation: В данной статье, соединяя уроки литературы с родным языком, можно теоретически осмыслить богатые языковые явления художественных произведений на родном языке, увидеть их в действии, ощутить их изысканность, познакомиться с высокими образцами использование языковых явлений, стилей речи. По мере того, как учащийся изучает родной язык и литературу в связи друг с другом, считается, что расширяются возможности приобщаться к высшим достижениям человеческого духа и стать сознательным творцом собственной жизни.*

**Ключевые слова:** художественное произведение, литература, изоценностъ, языковые явления, интеграция, стили речи.

*Annotation: in this article, by connecting literature lessons with the native language, it is possible to theoretically understand the rich linguistic phenomena of artistic works in the native language, to see them in action, to feel their sophistication, to get acquainted with high examples of the use of linguistic phenomena, speech styles. As the student learns the native language and literature in connection with each other, it is thought that the opportunity to become acquainted with the highest achievements of the human spirit and to become a conscious creator of one's own life expands.*

**Keywords:** artistic work, literature, sophistication, language phenomena, integration, speech styles.

Adabiyot darslarini ona tili o‘quv fani bilan integratsiyalash, uslubiyat qoidalarini xotirlash, til hodisalarini ishlatishdagi uslubiy farqlarni o‘rgatish kabi masalalarga kelsak, bu alohida izlanishlarni taqozo etadi. Badiiy asar tahlili jarayonida, asosan, so‘zlashuv uslubi bilan badiiy uslub tafovutlarini ko‘rsatib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi til hodisalariga alohida diqqat qilinadi:

- 1) so‘zlashuv uslubi bilan xoslangan holda qo‘llanadigan so‘zlar, so‘z shakllari, so‘z birikmali, gap tuzilishlari;
- 2) ularning adabiy tildagi imloviy variantlari;
- 3) so‘zlashuv uslubi bilan xoslangan holda qo‘llanadigan so‘zlar, so‘z shakllari, so‘z birikmali, gap tuzilishlarining ko‘proq asar qahramonlari tilida, muallif so‘zlarida ozroq ishlatilishi; ba’zilari yozuvchining individuallikka intilishlari tufayli yuzaga kelishi;
- 4) mumtoz asarlarda, ayniqsa, nazmda davr ruhini aks ettiruvchi til hodisalarining qo‘llanishi.

Metodika ilmida ona tili o‘quv fanini adabiyot bilan, adabiyot o‘quv fanini ona tili bilan o‘zaro aloqadorlik, uzviylik va bog’lanishda o‘rganish muammolari ma’lum darajada ilmiy tadqiq etilgan, ishlab chiqilgan va yoritilgan . Ayrim tadqiqot ishlarida bu masalaga muayyan miqdorda sahifalar ajratilgan . Ularda qimmatli fikrlar, tavsiyalar berilgan. Lekin bu ishlarda adabiyot darslarida ona tili o‘quv fani bilan bog’lanishni badiiy asarda ishlatilgan notanish so‘zlar, so‘z shakllari, sintaktik qurilmalar, so‘zlashuv uslubiga xos xususiyatlari (orfoepik me’yorlar), nutqiy faoliyat turlarining o‘ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari, ona tili darslarida o‘rganiladigan til hodisalariga tayanish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan maxsus tekshirilmagan. Ayni adabiy-nutqiy kompetentsiyalarni shakllantirish metodikasini yaratish shularni taqozo etadi.

Adabiyot darslarini ona tili bilan bog’lash orqali badiiy asarlarning ona tilidagi boy til hodisalarini nazariy jihatdan anglash, ularni amalda harakatda ko‘rish, nafosatini tuyish, til hodisalaridan, nutq uslublaridan foydalanishning yuksak namunalari bilan tanishish imkoniyati yuzaga keladi. O‘quvchi ona tili va adabiyotni o‘zaro bog’lanishga o‘rganar ekan, inson ruhining eng yuksak yutuqlari bilan tanishish, o‘z hayotining ongli ijodkoriga aylanish imkoniyati kengayadi. B.To‘xlievning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli darsligida “Badiiy asarning tilini o‘rganish” bo‘limi ajratilgan. Ushbu darslikda dastlab badiiy asar tili, so‘ng uni tahlil qilishning asosiy xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Muallif asar tilini uzviylik va uzuksizlik tamoyiliga amal qilgan holda tahlil qilishda quyidagi nazarda tutilishi shart bo‘lgan xususiyatlarni ajratadi:

1) o‘quvchilarning oldingi sinflarda ona tili va adabiyot darslarida olgan bilimlari;

2) ularning adabiy-nazariy tayyorgarliklari;

3) matndagi asosiy tasvir vositalarini aniqlay olish hamda ularning shu matnda bajarayotgan vazifalarini tahlil qila bilishga oid malaka va ko‘nikmalari.

Metodist olimlar adabiy asarni o‘rganish jarayonida fanlararo integratsiya, jumladan, tilga doir tushunchalarga murojaat etish mazmunidagi bog’lanishni zaruriyat deb hisoblaydilar. Jumladan, M.U.Saribayevaning fikricha, “Hozirgi kunda o‘quvchilar qaysi fan asoslarini o‘zlashtirmasın, barcha o‘quv materiallari dunyonи uzviyilikda o‘rganishga qaratilmoqda. Bu fanlararo uyg’unlik, integrativ yondashuv asosida amalga oshadi. Ushbu yondashuv adabiyot o‘qitish doirasida til, adabiyotshunoslik, tarix, geografiya, musiqa, tasviriy san’at, psixologiya, o‘lkashunoslik fanlari bilan bog’liqligida namoyon bo‘ladi” .

Metodist olim V.A.Qodirov doktorlik dissertatsiyasining ilmiy yangiliklaridan biri sifatida tadqiqot orqali ‘Nazariy ma’lumotlarni singdirish yo‘riqlari va bunda mavzulararo hamda fanlararo integratsiyadan foydalanish usullari ko‘rsatilgan” deb alohida ta’kidlaydi.

Adabiyotni o‘rganish jarayonida ona tili o‘quv fani bilan integratsiyalash talab etiladigan umumiyy va xususiy jihatlar ko‘p. S.A.Leonov ona tili bilan adabiyot o‘rtasidagi fanlararo bog’lanishga umumiyy tarzda kengroq qaraydi. U shunday yozadi: “Rus tili va adabiyotidan o‘quv fanlari o‘rtasidagi bog’lanish nutq o‘stirish darslarining hammasida quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: 1) og’zaki va yozma ravishda fikr bayon qilishning barcha janrlarida nutqiy faoliyatni to‘g’ri tashkil etish uchun zarur bo‘ladigan funktsional uslubiyat bo‘yicha o‘quvchilarning bilim va malakalarini shakllantirish; 2) ushbu o‘quv fanlari uchun umumiyy bo‘lgan nutqiy faoliyatning og’zaki va yozma turlarini o‘rgatish; 3) rus tili va adabiyotning tasviriy-ifodaviy vositalari haqida, ularning asardagi g’oyaviy-badiiy vazifalari to‘g’risida tushuncha hosil qilish” .

Adabiyot o‘quv fanini ona tili bilan integratsiyalashning bir tomoni nutq o‘stirish bilan bog’lanadi: asar qahramonlari ba’zan so‘zlashuv uslubida (orfoepiya me’yorlariga amal qilgan holda) so‘zlashadilar, ba’zida esa shevaga xos tarzda gapiradilar. O‘quvchilarni o‘zbek adabiy tili normalaridan chetga chiqish holatlari asar qahramonlari obrazini ishonarli qilib tasvirlash ehtiyoji ekanligi bilan tanishtirish, aslida hamma adabiy tilda gapirishga va yozishga harakat qilishini ta’kidlab borish zarur.

Adabiyot bilan ona tilining fanlararo aloqadorligi ijodiy yozma ishlarda (ko‘proq insholarda) yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ona tili darslarida yozilgan insholarda ham,

adabiyotdan olingan insholarda ham imloviy xatolar qatori matniy xatolar ham tez-tez uchrab turadi. Bunday xatolar ustidagi ishlar esa, asosan, ona tili darslarida, ba’zida adabiyot darslarida ularga murojaat etib amalga oshiriladi. Matniy xatolar ona tili darslarida maxsus o’rganilmayotgan til hodisalarini o‘quvchilarining hamma vaqt ham til hissiga tayangan holda amaliy bila olmasliklari natijasidir. Bunday xatolar uch-to’rtta emas, balki ko‘pdir. Bu esa yozilayotgan insholarning (yaratilayotgan matnlarning) standart talabiga javob bermasligiga sabab bo‘ladi. Avvalambor, matniy xatolarga ona tili o‘qituvchilarji jiddiy e’tibor bermaydilar, insholar tekshirilganda ko‘proq imlo va tinish belgilariga oid xatolar aniqlanadi.

Ma’lumki, o‘quvchilarning yozma nutqi savodxonlik nuqtai nazaridan qay saviyada ekanligiga ular yozgan diktant, bayon va insholar (yaratgan matnlar)ga qarab baho berish odat tusiga kirgan. “Diktant va qisman bayonda bu masala birinchi darajaga ko‘tarilishi to‘g’ri bo‘lar, lekin ijodiy yozma ishning maqsadi savodxonlikni mustahkamlashgina emas, balki bog’lanishli nutq malakasining matn sintaksisi darajasida shakllanishi va rivojlanishi uchun zamin yaratishdir. Chunki ana shunday yozma ishlarda o‘quvchining yozma nutqi: yutuq va kamchiliklari oynaday yaqqol ko‘rinib turadi”.

Metodik adabiyotlarda esa matniy xatolar ustida ishslash yuzasidan tavsiyalar endigina paydo bo‘la boshladi. Bu tavsiyalar ijodiy yozma ishlarning asl mohiyatini anglash va o‘rgatish ishlarini bog’lanishli nutq tuzilishi sari yo‘naltirish imkonini beradi. Insholarda yo‘l qo‘yiladigan matniy xatolarni yozma ishning texnik rasmiylashtirilishi, mazmun va kompozitsion tuzilishi jihatidan “tashkiliy-texnik matniy xatolar; mazmuniy-mantiqiy matniy xatolar; gaplarni o‘zaro leksik-grammatik bog’lashga (jumladan, tinish belgilariga) doir matniy xatolar; matn qismlarida uning tipiga xos kompozitsion tuzilish bilan bog’liq matniy xatolar” ga ajratish mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 24-б.
2. Ahmedov S., Tursunova M., Qo‘chqorov R. Adabiyot. 6-sinf: O‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005. – 192 b.
3. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2007. – 352 b.
4. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Uchinchi nashr. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi, 2020. – 271 b.